



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

Davlat organlari va yoshlar siyosati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar raqamli muhitda yoshlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish platformalarini kengaytirishlari zarur. Yoshlar o'rtasida "Real hayot — virtual olamdan ustun" g'oyasini targ'ib qiluvchi sport, madaniyat va kitobxonlik tadbirlarini ko'paytirish orqali ularning diqqatini foydali ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotchilar uchun mazkur mavzuni "Neyropsixologik yondashuv" orqali davom ettirish, ya'ni virtual qaramlikning miya fiziologiyasiga ta'sirini o'rganish eng dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi. Shuningdek, sun'iy intellekt va meta-olamlar sharoitida inson o'zligining transformatsiyasi kelgusida kiberpsixologiyaning asosiy o'rganish obyekti bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". — Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
2. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. — New York: W. W. Norton & Company, 1968.
3. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. — Toshkent: "Universitet", 2010.
4. Kastels M. Axborot davri: iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat. — Moskva: "VShE", 2000.
5. Shayxova T. "Virtual dunyo va yoshlar tarbiyasi" // Psixologiya jurnali, 2023. №2.
6. Suler J. "The Psychology of the Digital Age". — Cambridge University Press, 2016.
7. Rogers C.R. On Becoming a Person. — Boston: Houghton Mifflin, 1961.
8. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each other. — New York: Basic Books, 2011.
9. Rubinshteyn S.L. Osnovi obshchey psixologii. — SPb.: "Piter", 2002.
10. Shayxova T. Virtual dunyo va yoshlar tarbiyasi // Psixologiya jurnali. — Toshkent, 2023. — №2.

O'QUVCHILARDA O'QUV MOTIVATSIYASINING SHAKLLANISHI

Fayzullayeva Gulrux Jumaniyozovna

O'zMU Jizzax filiali psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Tursunboyeva Madinabonu

O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali "Psixologiya" fakulteti 213-24
guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi, o'quv motivatsiyasining shakllanishi va unga ta'sir qiluvchi omillar haqida fikr yuritilgan.

Tadqiqot davomida N.G. Luskanova metodikasi yordamida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabati o'rganildi. Natijalar ko'pchilik o'quvchilarda o'qishga qiziqish yuqori ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, maqolada motiv va motivatsiya tushunchalari, ichki va tashqi motivlarning o'quv faoliyatiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: motiv, motivatsiya, qiziqish, o'quv faoliyati, ichki motiv, tashqi motiv, o'quvchi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarda o'qishga qiziqish uyg'otish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki o'quvchi darsga qiziqsa, u bilimni yaxshiroq o'zlashtiradi, topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajaradi va mustaqil ishlashga harakat qiladi. Shu sababli psixologiyada o'quv motivatsiyasi masalasi muhim mavzulardan biri sifatida o'rganiladi[1].

Har qanday faoliyatning asosida ehtiyoj va qiziqish yotadi. O'quv faoliyatida ham motivatsiya muhim o'rin tutadi. Motivatsiya o'quvchini harakatga undaydi, maqsad sari yo'naltiradi va uning faoliyatini boshqarib turadi[1].

Hozirgi davrda o'quvchilarning o'qishga qiziqishi pasayib ketmasligi uchun ta'lim jarayonida ularning motivlarini o'rganish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, kichik va o'rta yoshdagi o'quvchilarda motivlarning qanday shakllanishini bilish pedagog va psixologlar uchun zarurdir.

Psixologik adabiyotlarda motiv insonni faoliyatga undovchi sabab sifatida izohlanadi. Insonning har qanday harakati ma'lum ehtiyoj asosida yuzaga keladi. Ehtiyoj esa asta-sekin motivga aylanadi[1]. Abraham Maslou motivlarni inson ehtiyojlari bilan bog'laydi. Olimning fikricha, inson avvalo oddiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladi. Keyinchalik esa hurmat, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish va o'z imkoniyatlarini namoyon qilishga intiladi. A.N. Leontev motivni inson faoliyatini harakatga keltiruvchi omil deb hisoblaydi. Olimning fikricha, inson faoliyati turli motivlar asosida shakllanadi va vaqt o'tishi bilan ular bir-biri bilan bog'lanib boradi[2]. S.L. Rubinshteyn esa motivni ehtiyojning his qilinishi bilan bog'laydi. U motivatsiyani inson psixikasi bilan bog'liq murakkab jarayon deb ta'riflaydi.

Motivatsiya esa insonni faoliyatga undovchi sabablar yig'indisidir. Motivatsiya tarkibiga ehtiyoj, qiziqish, maqsad, intilish va emotsiyalar kiradi. Insonning o'qishga, mehnatga yoki boshqa faoliyatga munosabati uning motivatsiyasiga bog'liq bo'ladi[1].

O'quv motivatsiyasi va uning turlari

O'quv motivatsiyasi o'quvchini bilim olishga undovchi omillar bilan bog'liqdir. O'quvchi nima sababdan o'qiydi, nima uchun darsga qiziqadi yoki aksincha qiziqmaydi — bularning barchasi motivatsiya bilan bog'liq.

A.K. Markova o'quv motivlarini ikki guruhga ajratadi:

bilishga qiziqish bilan bog'liq motivlar;

ijtimoiy motivlar.

Bilish motivlari o'quvchining yangi narsalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi bilan bog'liq bo'ladi. Bunday o'quvchilar darslarda faol qatnashadi, savollar beradi va mustaqil ishlashga harakat qiladi.

Ijtimoiy motivlarda esa o'quvchi boshqalarning fikriga ko'proq e'tibor beradi. Masalan, yaxshi baho olish, ota-onani xursand qilish yoki sinfdoshlar orasida obro' qozonish kabi holatlar bunga misol bo'ladi[3].

Psixologiyada motivlar ichki va tashqi motivlarga ham ajratiladi. Ichki motivlarda o'quvchi bilim olishni o'zi uchun kerak deb hisoblaydi. Tashqi motivlarda esa o'qish ko'proq majburiyat yoki tashqi talab sifatida namoyon bo'ladi. Ichki motivlar kuchliroq va barqarorroq hisoblanadi[1]. Chunki bunday o'quvchilar bilim olishdan zavq oladi.

O'quv motivatsiyasining shakllanishiga turli omillar ta'sir qiladi.

Ulardan eng asosiylari quyidagilar:

oiladagi muhit;

o'qituvchining munosabati;

sinfidagi psixologik holat;

o'quvchining qiziqishi;

muvaffaqiyatga erishish istagi.

Agar oilada farzandning o'qishiga e'tibor berilsa, uni qo'llab-quvvatlashsa, o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishi ortadi[7]. Aksincha, doimiy tanbeh va bosim motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin[5]. O'qituvchining darsni qanday tashkil qilishi ham muhim ahamiyatga ega. Qiziqarli va erkin tashkil etilgan darslar o'quvchilarda ijobiy motivlarni rivojlantiradi. Kurt Levin insonning xulqi va faoliyati vaziyat bilan bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Ya'ni inson o'zi tushgan muhitga qarab harakat qiladi. Gordon Ollport esa ayrim faoliyatlar dastlab tashqi sabab bilan boshlansa ham, keyinchalik insonning ichki ehtiyojiga aylanishi mumkinligini aytgan. Bu holat o'quvchilarda ham kuzatiladi. Masalan, avval ota-onasi majburlagani uchun dars qilgan bola keyinchalik o'qishga qiziqib qolishi mumkin.

O'quv faoliyatida motivatsiyaning ahamiyati

Motivatsiya o'quv faoliyatining asosiy omillaridan biridir. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilar:

darslarga faol qatnashadi;

topshiriqlarni vaqtida bajaradi;

mustaqil ishlaydi;

qiyinchiliklardan qo'rqmaydi.

Bunday o'quvchilar bilimni tezroq o'zlashtiradi va o'ziga nisbatan ishonchi yuqori bo'ladi[2]. Motivatsiya past bo'lgan o'quvchilarda esa darsga qiziqmaslik, topshiriqlarni bajarmaslik va o'ziga ishonchsizlik kabi holatlar kuzatiladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishini qo'llab-quvvatlash juda muhimdir.

Tadqiqotning tashkil etilishi

Mazkur tadqiqotda N.G. Luskanova tomonidan ishlab chiqilgan metodikadan foydalanildi. Ushbu metodika yordamida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabati va motivatsiyasi o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilarning aksariyatida o'qishga bo'lgan qiziqish yuqori ekanligi aniqlandi. Ko'pchilik o'quvchilar darslarda faol qatnashishi, bilim olishga intilishi va topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajarishi kuzatildi. Ayrim o'quvchilarda esa motivatsiya o'rtacha darajada ekanligi va ayrim bolalarda o'qishga qiziqish pastligi aniqlandi. Bu holat o'quvchilarning darslarga qiziqishining yetarli shakllanmagani, tashqi nazoratga ortiqcha bog'liqlik hamda individual psixologik xususiyatlar bilan izohlanishi mumkin[3]. Shuningdek, o'quv motivatsiyasining shakllanishida oilaviy muhit, o'qituvchining munosabati va ta'lim jarayonining tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etishi kuzatildi. Shu sababli o'quvchilarda ichki motivlarni rivojlantirish, ularni

rag'batlantirish va dars jarayoniga faol jalb etish zarur hisoblanadi O'quv motivatsiyasi o'quv faoliyatining muhim qismi hisoblanadi. Motivatsiya o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning faoliyatini boshqaradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilarning ko'pchiligida o'qishga bo'lgan qiziqish yuqori ekanligi aniqlandi. Bu esa ta'lim jarayonida ijobiy muhit yaratish muhim ekanligini ko'rsatadi.

O'quvchilarda motivatsiyani rivojlantirish uchun:

Xar bir darslarni qiziqarli tashkil qilish;

Bolalarni kichik maktab yoshida rag'batlantirib turish;

Xar bir bolaga individual yondashuv;

Ta'lim muhitida ijobiy munosabatni kuchaytirish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.E.G'. G'oziyev. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.

2.M.G. Davletshin. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2008.

3.F.I. Xaydarov, N.I. Xalilova. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.

4.D.I. Mukumova, R.X. Fayzullaev, A.A. Jumanov, S.B. Yarova . Boshqaruv psixologiyasi – Toshkent, O'quv qo'llanma. 2023.

5.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2007.

6. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2008.

7.Nishonova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya. – Toshkent.

8.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MULOQOTGA KIRISHISH JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Sattorova Mahliyo Burxonovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
o'qituvchisi

Raxmonova Dilfuza Komil qizi, Azatova Charos Nuriddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida (6-10/11 yosh) muloqotga kirishish jarayonining psixologik xususiyatlari tahlil etiladi. Muloqotning rivojlanish bosqichlari, yosh xususiyatlari, shuningdek, uni rivojlantirishning samarali pedagogik-psixologik usullari ko'rib chiqiladi. Maqola ilmiy adabiyotlar va empirik